

TALABALARNING FAOLIGINI OSHIRISHDA HAZL VA HIKOYALARNING ROLI

U. Karimova ¹, D. Nurbekova ²*Annotatsiya:*

Ushbu maqola ingliz tili va boshqa fanlarni o'rganishda talabalarda uchraydigan turli ko'rinishdagi qiyinchiliklarni har xil hazl va hikoyalar bilan osonlashtirish metodi va bu usulning talabalarning ta'lim yo'lida to'qnashishi mumkin bo'lgan to'siqlarni qanchalik osonlashtirishi haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Talabalar faolligi, Hazl, Hikoyalar, Motivatsiya, Stressni kamaytirish, Diqqatni jalb qilish, O'quv jarayoni, O'zaro aloqalar, Ijodiy fikrlash, Faol ishtirok.

Maqolada hazl va hikoyalar ta'lim jarayonida talabalarning motivatsiyasini oshirish, stressini kamaytirish, diqqatini jalb qilish va ularni faollashtirishda qanday yordam berishi haqida muhokama qilinadi. Hazl va hikoyalar o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, o'rgatish materiallarini qiziqarli va tushunarli tarzda taqdim etish, hamda talabalarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek ushbu maqolada, bu usullarni darslarda qanday qo'llash mumkinligi ham tushuntirib o'tiladi. Umuman olganda, bu maqola fanlarning o'rganilishdagi murakkabliklardan o'tish maqsadida o'qituvchilar va o'rganuvchilarga foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Ta'limda o'qituvchilarning asosiy vazifalaridan biri - dars davomida talabalarning faolligini oshirishga qaratiladi. Talabalarda faollik hissi bo'lsa ularning bilim olish darajasi yanada samarali va natijali bo'ladi. Shu sababli o'qituvchilar darslarini yanada qiziqarli va interaktiv usullar orqali tashkil qilishga harakat qilishadi va bu usullar orasida hazl va hikoya usuli alohida ahamiyat kasb etadi. Bu usul o'qituvchining darsga bo'lgan yondashuvini yengillashtiradi, chunki o'quvchilarni darsga jalb qilish va darsga bo'lgan qiziqishini oshirishda yaxshigina qo'l keladi. Masalan, hikoyalar yangi mavzuni talabalarga yanada oson yetkazishda yordam beradi va bu yo'l orqali o'qituvchi murakkab tushunchalarni ham oddiy va qiziqarli shaklda taqdim etishi mumkin.

Hazlning talabalar faoliyatini oshirishdagi ahamiyati. Hazl bir qismiga aylangan dars jarayonining natijasi boshqlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Sababi bu usul eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatga oqilona yechim bo'la oladi. Bu usul quyidagi holatlarda juda qo'l keladi:

- Stressni kamaytiradi: O'qish va o'rganishda, umuman olganda, dars davomida talabalar eng ko'p duch keladigan muammolardan biri bu - stress deb qaraladi. Hazl esa talabalar o'zlarini erkin his qilishlariga qaysidir ma'noda yordam beradi. Bu ularning o'rganish davomida diqqatini bir joyga jamlashga eng qulay usul hisoblanadi.

- Motivatsiyani oshiradi: Qarshisida hazl-mutoyibali o'qituvchini ko'rgan talabalar darsga yanada e'tibor bera boshlashadi. Turli xil hazllardan zavqlangan o'quvchilar yanada faol va so'zlarini ifodalashda ya'nada erkin bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu ular uchun eng katta motivatsiya bo'lib xizmat qiladi.

- O'rganish jarayonini yengillashtiradi: Hazl yordamida o'rganilayotgan materiallar o'quvchilarga ko'proq ma'lumot eslab qolishida qo'l keladi, sababi o'qituvchilar talabalarning his-tuyg'ulariga ta'sir qila oladi va bu ma'lumotlar xotirada uzoq vaqt qolishini ham ta'minlaydi.

- Diqqatni jalb qilish: Dars davomida eng qiyin bo'lgan faoliyat bu - o'quvchilarning diqqatini uzoq vaqt davomida saqlab qolish hisoblanadi. Hazl esa yangi mavzu yoki murakkab kontentni o'qituvchilar tushuntirishda o'quvchilarni jalb qilishda yordam beradi.

Hikoyalarning talabalar faolligini oshirishdagi ahamiyati. Ta'lim jarayonida foydalaniladigan ajoyib vositalardan yana biri bu hikoyalar bo'lib, ular talabalarni darsga qiziqishini oshirishga yordam beradi. Hikoyalar quyidagi jihatlari bilan talabalarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Emotsional aloqani yaratadi: O'rganilayotgan materialga emotsional aloqani yaratish imkonini beruvchi eng qulay vositalardan biri bu - Hikoya. Talabalar hikoyani tinglash davomida mavzuga aloqador vaziyatning ma'lum qismini tasavvurlarida jonlantirishadi va o'z reaksiyalarini bildirishadi. Bu esa o'z o'rnida mavzuni oson va uzoq vaqt davomida eslab qolishlariga katta yordam bo'ladi.

¹ Karimova Umida Ochilovna, assistant-o'qituvchisi Samarqand davlat chet tillar instituti

² Nurbekova Durdona Uchqun qizi, 1-bosqich talaba, Ingliz tili fakulteti, Samarqand davlat chet tillar instituti

- Murakkab mavzularni oddiylashtiradi: Murakkab yoki abstract mavzularni hikoya ko'rinishida taqdim etish o'quvchilar uchun yanada tushunarli bo'ladi. Hikoya yordamida har qanday mavzuni o'quvchilar tasavvurida osongina jonlantirish mumkin va bu ularga yangi mavzuga bo'lgan qiziqishni ham oshiradi.

- Tushunishni yaxshilaydi: Hikoyalar ta'lim materilallarini hayotiy misollar yoki qiziqishlari bilan bog'lashga va shu orqali tushunishni yaxshilashga juda katta yordam beradi.

- Jamoaviy munosabatlarni rivojlantiradi: Guruhlarda ishlashda, talabalar orasida jamoaviy munosabatlarni rivojlantirishda ham hikoyalar katta ahamiyatga ega. Hikoyalarni tinglash va muhokama qilish, talabalar o'rtasida ijtimoiy aloqalarni kuchaytiradi, bu esa ularning jamoaviy munosabatlarda faol ishtirokini oshirishga yordam beradi.

- Kreativlikni rivojlantiradi: Hikoyani o'qish yoxud tinglash talabalarni ijodiy fikrlashga undaydi. O'quvchilar turli xil hikoyalarni eshitishi orqali o'zidagi kreativlik qobiliyatini ham rivojlantirib boradi va yangi g'oyalar egasiga aylanadi.

- Hazl va Hikoyalarni darsning boshlanishida qo'llash: Dars avvalida qisqacha hazl yoki hikoya orqali talabalarining kayfiyatini ko'tarish va ularning e'tiborini darsga yo'naltirish mumkin. Bu hali dars muhitiga moslashib ulgurmagan talabalar uchun juda qo'l keladi.

- Hazl yoki Hikoyalarni darsning o'rtasida ishlatish: Murakkab va uzoq davom etadigan mavzu bo'lsa, hazl yoki qisqa hikoya orqali dars davomida talabalarining e'tiborini qayta tiklash mumkin. Bu o'quvchilarning faolligini oshirish va diqqatini jamlashga yordam beradi.

- Talabalar bilan interaktiv hikoya yaratish: Talabalarni hikoyalarga qo'shishga va ularni darsga faol jalb qilishga imkon berish. Bu usul o'quvchilarga o'z fikrlarini erkin bildirishga, g'oyalarini yaratishga va dars jarayonida yanada faol bo'lishiga undaydi.

Talabalar faolligini oshirishda hazl va hikoyalar samarali vositalar bo'lib, ular o'quvchilarga motivatsiya berish, stressni kamaytirish, darsga qiziqish va diqqatni jamlashga yordam beradi. Shuningdek talabalar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashda, o'rgatilayotgan mavzu yoki materialarni aniq va tushunarli tarzda taqdim etishda va talabalarining ijodiy fikrlarini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga ular o'quv jaryonini qiziqarli va mazmunli qilishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Umida K. *The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism* //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – C. 4-9.

[2]. Umida K. *The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl* //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 1-6. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1325>

[3]. Umida, Karimova. "The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism." *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching* 8 (2022): 4-9. Retrieved from ISSN: 2795-739X.

[4]. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. *Improving speaking skill with the help of modern technologies* //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 367-369.